



**FUQAROLIK HUQUQIDA ISHONCHNOMA INSTITUTINING HUQUQIY  
ASOSLARI, AMALIY MUAMMOLARI VA ULARNI HAL ETISHDA XORIJ  
TAJRIBASI**

**Rajabboyeva E'zoza Ruslon qizi**

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Yuridika  
fakulteti yurisprudensiya yo'nalishi 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada fuqarolik huquqida ishonchnoma institutining huquqiy asoslari va amaliyotdagi o'rni tahlil qilinadi. Unda ishonchnomaning mohiyati, turlari, qo'llanilishi va bekor qilinishi bilan bog'liq masalalar yoritiladi. Shuningdek mavjud muammolar aniqlanib, Shvetsiya va Germaniya qonunchiligi misolida takomillashtirish bo'yicha takliflar beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *ishonchnoma, umumiy va maxsus ishonchnoma, ishonchnoma muddati, ishonchnomaning bekor qilinishi*

O'zbekiston Respublikasida fuqarolik huquqi juda keng va murakkab huquq sohaslaridan biri hisoblanadi. Kundalik turmushimizda har kuni tez-tez fuqarolik huquqiy munosabatiga kirishamiz: oldi-sotdi, mulkni meros qilib olish, bitimlar va shartnomalar imzolash va hokazo. Ular orasida vakillik qilish huquqi va undan kelib chiqadigan majburiyatlar alohida e'tiborga molik. Vakillikni yuzaga kelishi uchun esa ishonchnoma instituti muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi FKning 134-moddasida tavsiflanganidek, ishonchnoma deb bir shaxs (ishonch bildiruvchi) tomonidan ikkinchi shaxsga (ishonchli vakilga) uchinchi shaxslar oldida vakillik qilish uchun berilgan yozma vakolat ishonchnoma hisoblanadi. Ishonchli vakil o'ziga ishonchnoma bilan berilgan vakolatlar doirasida ish olib boradi. Ishonchnoma vakilning uchinchi shaxslar bilan huquqiy munosabatlarda bo'lishi uchun tayinlanadi. Ishonchnomaning mazmunidan uning qanday vakolatlarga ega ekanligi, qanday yuridik harakatlar qilishga haqli bo'lishi ko'rinib turadi. Binobarin, vakil ishonchnomada ko'rsatilgan vakolat doirasida harakat qilib, uchinchi shaxslar bilan shartnoma tuzgan bo'lsa, vakil qiluvchi bu shartnomani bajarishdan bosh tortmaydi. Ishonchnoma faqat yozma shaklda tuzilmaydi. Fuqarolik kodeksining 135-moddasiga muvofiq ishonchnomaning oddiy yozma shakli bilan bir qatorda notarial tartibda tasdiqlanadigan shakli ham mavjud. Oddiy yozma shakldagi ishonchnoma - bu notarial tasdiqni talab qilmaydigan, lekin qonuniy kuchga ega bo'lgan ishonchnoma shaklidir. U oddiy qog'ozda yozilishi yoki kompyuterda tayyorlanishi mumkin va ishonch bildiruvchi shaxs tomonidan imzolansa yetarli hisoblanadi. Masalan, bankdan pul olish, pochtdan jo'natmani olish, institut yoki maktabdan hujjatlarni o'zga shaxs nomidan olishda oddiy yozma shakldagi ishonchnoma talab etiladi. Notarial shakldagi ishonchnoma esa notarius yoki notarial harakatlarni amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan mansabdor shaxs tomonidan



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



tasdiqlangan ishonchnoma bo'lib, yuqori yuridik kuchga ega hujjat hisoblanadi. Bu turdagi ishonchnoma qonun bilan belgilangan ayrim huquqiy munosabatlarda majburiy hisoblanadi. Chunonchi, ko'chmas mulk bilan bog'liq bitimlar, yuridik shaxs nomidan harakat qilish, veksel, chek kabi qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq masalalarda ishonchnomaning majburiy tarzda notarial tartibda tasdiqlangan shakli talab qilinadi.

Fuqarolik huquqida ishonchnomaning umumiy va maxsus turlarga bo'linishi ham keltirib o'tilgan. Umumiy ishonchnomada har xil bitimlar va boshqa yuridik harakatlar qilish, masalan, yuridik va jismoniy shaxslarning filiallarini idora etish yoki fuqaroga qarashli mulkni boshqarish uchun berilgan vakolat ko'rsatiladi. Maxsus ishonchnomada bir turdagi bitimlarni tuzish, masalan, fermer xo'jaliklari va ularning a'zolaridan qishloq xo'jalik mahsulotlarini xarid qilish bo'yicha vakolat belgilanadi. Faqat biron-bir bitimni tuzish, masalan, sotib olib ajratib qo'yilgan tovarni olish berilgan ishonchnoma berganlik maxsus ishonchnoma hisoblanadi.

Iшонchnoma institutida ham aniq muddat amal qiladi ya'ni FKning 139-moddasida keltirilganidek ishonchnoma ko'pi bilan uch yil muddatga berilishi mumkin. Agar ishonchnomada muddat ko'rsatilgan bo'lmasa, u berilgan kundan boshlab bir yil mobaynida o'z kuchini saqlaydi. Berilgan kuni ko'rsatilmagan ishonchnoma haqiqiy emas. Notarius tomonidan tasdiqlanib, O'zbekiston Respublikasidan tashqarida harakatlarni amalga oshirishga mo'ljallangan, amal qilish muddati ko'rsatilmagan ishonchnoma uni bergan shaxs tomonidan bekor qilingunga qadar o'z kuchini saqlaydi. Iшонchnomaning amal qilishi quyidagi hollarda bekor bo'ladi: ishonchnoma muddatining tamom bo'lishi; ishonchnoma bergan shaxsning uni bekor qilishi; ishonchnoma berilgan shaxsning bosh tortishi; nomidan ishonchnoma berilgan yuridik shaxs faoliyatining to'xtatilishi; nomiga ishonchnoma berilgan yuridik shaxs faoliyatining to'xtatilishi, ishonchnoma bergan fuqaroning muomalaga layoqati cheklangan yoki bedarak yo'qolgan deb hisoblanishi; ishonchnoma olgan fuqaroning muomalaga layoqatsiz, muomalaga layoqati cheklangan yoki bedarak yo'qolgan deb hisoblanishi, yoxud uning vafot etishi<sup>36</sup>.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolik huquqi sohasida ishonchnoma institutining huquqiy asoslari aniq belgilangan bo'lishiga qaramasdan, haligacha ishonchnoma instituti bilan bog'liq muammolar mavjud. Misol uchun, elektron ishonchnomalar tizimi O'zbekistonda keng rivojlanib ulgurmagan. Faqat ayrim davlat xizmatlari yagona interaktiv portalda ishlaydi, lekin to'liq huquqiy kuchga ega bo'lgan elektron ishonchnoma tizimi yo'q. Ko'plab rivojlangan Germaniya, Shvetsiya kabi davlatlarda elekton ishonchnoma tizimi yo'lga qo'yilgan. Bu esa fuqarolarga uydan chiqmasdan turib ishonchnoma tuzish va rasmiylashtirishda bir qancha qulayliklar yaratadi. Yana bir muammo ishonchnoma instituti tizimida firibgarlik va suiiste'mollik holatlarini mavjudligi. Ko'p hollarda ishonchnoma orqali ko'chmas mulk yoki transport vositalarini noqonuniy sotib yuborish hollari uchraydi. Bunga Germaniya tajribasi orqali yechib keltiradigan bo'lsak, Germaniyada har bir tuzilgan

<sup>36</sup> I.B.Zokirov "Fuqarolik huquqi" darslik – Toshkent TDYI 2006-yil 178-bet





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



ishonchnoma maxsus reyestrğa (Vollmachtsregister) qayd etiladi va uning haqiqiyliğı onlayn tekshiriladi. O'zbekistonda ham xuddi shunday rayestr joriy etilsa, ishonchnoma institutida firibgarliklar kamayadi. Ba'zi hollarda O'zbekiston ishonchnoma institutida ishonchnomaning bekor qilingaligi haqida xabardor qilish tizimi yaxshi ishlamaydi. Natijada, ishonch beruvchi ishonchnomani bekor qilgan bo'lsada uchinchi shaxs bundan bexabar qolib, bitim tuzadi - bahsli holatlar ko'payadi, shu sababli ham vakolatsiz vakillik holatlari tez-tez ko'zga tashlanadi. Shvetsiyada bunday holatlarni oldini olish Avtalslagen (shartnomalar to'g'risidagi qonun)da keltirilgan, unga ko'ra ishonchnomani internet orqali darhol bekor qilish va ishonchnomaning bekor qilingaligi haqidagi xabar uchinchi shaxsga ham tezda yetib borishi takomillashgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ishonchnoma instituti O'zbekiston Respublikasi fuqarolik huquq tizimida muhim ahamiyatga ega bo'lib, huquqiy munosabatlarda vakillikni ta'minlaydi va shaxslarning huquqlarini amalga oshirishni osonlashtiradi. Germaniya ishonchnoma institutida huquqiy ishonchlilik, reyestr tizimi va firibgarlikni oldini olishga alohida e'tibor qaratilgan, Shvetsiya tajribasida esa qulaylik, ishonchnoma bekor qilinganligi haqida xabardor qilish tizimi ustuvor hisoblanadi. O'zbekiston uchun bu ikki modelni uyg'unlashtirish maqsadga muvofiq: Germaniya kabi xavfsizlikni kuchaytirish, Shvetsiya kabi elektron xabardor qilish tizimini joriy etish zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. - T.: "Yuridik adabiyotlar publish", 2025 y. - 616 b.
2. I.B.Zokirov. Fuqarolik huquqi: Darslik. I qism. -T.: TDYI. 2006. 384-bet.
3. Germaniya Fuqarolik kodeksi – <https://www.gesetze-im-internet.de/bgb/BJNR001950896.html>